

## **Assalomu alaykum hurmatli brifing kuzatuvchilari**

Ushbu birifing orqali 2022- yilning ikkinchi choragi yakuni bo'yicha viloyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ularning o'sish sur'atlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tamiz.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- iyul holatiga 2 mln. 959,3 ming kishini tashkil etib, 2022- yil boshidan 28,2 ming kishiga ko'paygan.

Jumladan, shahar aholisi soni 1 mln. 918 ming kishini

qishloq aholisi soni 1 mln. 41 ming 300 kishini tashkil etmoqda.

Aholi soni eng ko'pi Namangan shahrida 668 ming 600 kishini eng kam aholi Mingbuloq tumanida 132 ming 400 kishini tashkil etgan

Shuningdek, joriy yilning yanvar-iyun oylarida 35,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, ulardan 18,5 ming nafarini o'g'il bolalar, 17,3 ming nafarini qiz bolalar tashkil etmoqda. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 7,1 ming nikoh va 2183 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

**Migratsiya.** 2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1275 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2594 kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1319 kishi bo'lib, 2021- yilning mos davrida minus 1469 kishi bo'lgan.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi 17 trln. 222,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,6 % ga o'sdi. Aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi hududiy mahsulot hajmi 5 mln. 847,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,2 % ga yuqoridir.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ni tashkil etgan.

Sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish dasturlarining amalga oshirilishi hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, respublika sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Ta'kidlash lozimki so'nngi yillarda Namangan viloyatida ham kichik sanoat zonalarini tashkil etilishi ushbu sohaning yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimiz korxonalar tomonidan 7,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 8,6 % ko'paygan.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida sanoat korxonalar tomonidan qiymati 1,2 trln. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 73 mlrd so'mlik turli xil metallar, 275 mlrd so'mlik boshqa nometall mineral mahsulotlar, 191,5 mlrd so'mlik ichimlik mahsulotlari, 2,1 trln. so'mlik to'qimachilik mahsulotlari, 805 mlrd. so'mlik kiyim kechak mahsulotlari, 174,5 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari hamda 119,0 mlrd. so'mlik rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarilgan.

**Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi iqtisodiyotniig istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.**

Jumladan joriy yilning 1- iyul holatiga Namangan viloyatida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar soni 22 081 tani tashkil etib, ular tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 trillion 828 milliard so'mni tashkil etdi va uning nominal hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,4 trln so'mga ko'paygan.

Shu bilan birga bozor xizmatlarining eng katta hajmlari quydagi uchta soha xissasiga to'g'ri keladi.

Ya'ni. savdo xizmatlari 2,3 trln so'm, moliyaviy xizmatlar 1,1 trln so'm hamda transport xizmatlari 1,2 trln so'mni tashkil etgan.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 mln. 318 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 113,5 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda qurilish va bunyodkorlik ishlariga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida sohada ulkan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Shahar va qishloqlar qiyofasi o'zgarib, odamlarning turmush farovonligi oshib bormoqda. Jumladan, viloyatimizning barcha hududlarida ulkan

bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, yirik sanoat korxonalari, ijtimoiy obyektlar va ko'p qavatli uy-joylar barpo etilmoqda.

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, Namangan viloyat bo'yicha 2402 ta qurilish korxonalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar-aprel oylarida 2 trln. 921 mlrd. 500 million so'mlik qurilish ishlari bajarildi. O'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibida yirik qurilish tashkilotlari - 7,3 %, norasmiy sektor - 28,8% hamda kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 63,9 % ni tashkil etmoqda.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 608,1 mln. AQSH dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021- yilning mos davriga nisbatan 16,4 % ga ko'paygan. Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 271,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib 2021- yilning mos davriga nisbatan 22,7 % ga ko'paydi. Import hajmi esa 336,8 mln. AQSh dollarni tashkil etib ,11,7 % ga ko'paydi. Hisobot davrida – 65,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etilgan.

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra Namangan viloyati bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 36 797 tani tashkil etib, ulardan 35 064

tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida 3 329 korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni - 22 628 ta, Oilaviy korxonalar - 1 269 ta, Unitar korxonalar – 143 ta, Xususiy korxonalar - 6 230 ta, Aksiyadorlik jamiyatlari – 18 ta va boshqa korxonalar 427 tani tashkil etmoqda.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi 70,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 10,3 birlikni tashkil etib, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 20 ming 404 taga yetdi. Shuningdek, yanvar-iyun oylarida 2890 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 7 trln. 404,6 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,0 % ini tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 11,3 % ga o'sishi kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 113,2 million AQSH dollari miqdorida tovar va xizmatlar eksporti hamda 239,8 million AQSH dollari miqdorida importi amalga oshirildi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 8,8 trln. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qilgan.

Viloyat bo'yicha yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,2 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,7 %ga ko'paygan.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlarining ulishi 4,6 trln. so'mni tashkil etib, 2,1 % ga oshgan.

Ma'lumot o'rnida, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 9,6 trln. so'mni, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil etgan.

Respublika qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarkibida Namangan viloyatining ulushi 7,3 % ni tashkil etdi.